

# **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O`STIRISH YO`LLARI**

## **ПУТИ РАЗВИТИЯ РЕЧИ ДОШКОЛЬНИКОВ**

### **WAYS TO GROW SPEECH IN PRESCHOOL CHILDREN**

**JDPI “Maktabgacha ta`lim metodikasi”**

**kafedrasi o`qituvchisi - E.Hamrayeva,**

**532-19 (3-kurs) talabasi Z.Arziyeva**

#### **Annotatsiya**

Sog'lom bolani tarbiyalash masalasiga yurtimizda asosiy e'tibor qaratilgan bo'lib sog'lom bolani tarkib toptirish juda ko'p omillarga bog'liq bo'lib, bolaning kamolot mezonlaridan biri uni psixikasini har tomonlama rivojlantirishdir. Bolaning psixik taraqqiyoti unda sezgi, idrok, diqqat, xotira, nutq, hayol va tafakkurning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Bolaning ruhiy kamolotining ko'p jihatlari nutq bilan bog'liq ravishda rivojlanadi. Chunki, bola muloqotga kirishishi ya'ni tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan muloqotlari jarayonida juda ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ladi va o'zining ruhiyatini keyingi rivojlanish bosqichiga ko'tarib boradi.

#### **Аннотация**

В нашей стране основное внимание уделяется вопросам воспитания здорового ребенка содержание здорового ребенка зависит от многих факторов, одним из критериев зрелости ребенка является всестороннее развитие его психики. Психическое развитие ребенка неразрывно связано с

развитием у него интуиции, восприятия, внимания, памяти, речи, воображения и мышления. Многие аспекты психического созревания ребенка развиваются в связи с речью. Потому что, вступая в общение, то есть в процессе общения со сверстниками и взрослыми, ребенок получает огромное количество информации и поднимает свою психику на следующий уровень развития.

### **Annotation**

The main attention is paid to the issue of raising a healthy child in our country and the content of a healthy child depends on many factors, one of the criteria of the child's perfection is the comprehensive development of his psyche. The psychological development of the child is inextricably linked with the development of intuition, perception, attention, memory, speech, imagination and thinking in it. Many aspects of the child's mental maturity develop in connection with speech. Because, the fact that the child begins to communicate, that is, he will have a lot of information in the process of his communication with peers and adults, and will raise his psyche to the next stage of development.

**Kalit so`zlar:** Sezgi, idrok, diqqat, хотира, nutq, hayol, tafakkur, bola, ruhiyat, kamolot, muloqot, rivojlanish, sog`lom bola.

**Ключевые слова:** Интуиция, восприятие, внимание, память, речь, воображение, мышление, ребенок, психика, зрелость, общение, развитие, здоровый ребенок.

**Keywords:** Intuition, perception, attention, memory, speech, fantasy, contemplation, child, spirit, perfection, communication, development, healthy child.

Davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasining birinchi va muhim bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. 2017-yil 16-avgust va 19-oktabr kunlari bo‘lib o‘tgan yig‘ilishlarda bu masala atroflicha muhokama qilingan edi. 2017-yil 30-sentabrda Prezidentimiz tomonidan “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Davlatimiz rahbarining hududlarga tashriflari chog‘ida o‘tkazilgan majlislarda ham bu borada ko‘plab vazifalar belgilab berildi.

Sog‘lom bolani tarbiyalash masalasiga yurtimizda asosiy e‘tibor qaratilgan bo‘lib sog‘lom bolani tarkib toptirish juda ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, bolaning kamolot mezonlaridan biri uni psixikasini har tomonlama rivojlantirishdir. Bolaning psixik taraqqiyoti unda sezgi, idrok, diqqat, xotira, nutq, hayol va tafakkurning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq.

Bolaning ruhiy kamolotining ko‘p jihatlari nutq bilan bog‘liq ravishda rivojlanadi. Chunki, bola muloqotga kirishishi ya‘ni tengdoshlari va kattalar bilan bo‘ladigan muloqotlari jarayonida juda ko‘plab ma‘lumotlarga ega bo‘ladi va o‘zining ruhiyatini keyingi rivojlanish bosqichiga ko‘tarib boradi. Shuning uchun, bola hayotining dastlabki birinchi oyidan tarbiya faqat uni parvarish qilish bilan chegaralanmasligi kerak. Bolaning ilk yosh davridan eshitish qobiliyatini tarbiyalash, shuningdek, bolaning emotsional sohasi – jilmayish, kulish, va ovoz tonini uyg‘otish lozim. Bularning hammasi birgalikda nutqning rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bolalarda nutq faoliyatining rivoji o‘zgalar nutqini oqilona idrok qilish va tushunish imkonini yaratadi, shaxslararo muomila ko‘lamini yanada kengaytiradi.<sup>1</sup> Shu jihatni hisobga olib maktabgacha ta‘lim muassasalarining pedagoglariga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri ularning ijodkor bo‘lishlari, zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalana olgan holda bolalar nutqini rivojlantirishga

---

<sup>1</sup>Goziyev E. Psixologiya. Toshkent. “O‘qituvchi” nshiriyoti. 1994 yil. 92-bet.

o'z hissalarini qo'shishlari shuning bilan birgalikda o'z kasbini yaxshi ko'rish, bolalar bilan ishlash, metodikasini ham chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Bu jarayon bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Bolalarni sevish pedagogning mehnatini jozibali va yengil qiladi. Tarbiyachining bolalarga munosabatida tarbiyalanuvchi shaxsiga hurmat, unga talabchanlik bilan qarash talab etilsa, bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uyg'otadi, tarbiyachiga esa bolalarga chinakam ma'naviy murabbiy bo'lishga imkon beradi.

Bog'cha yoshidagi bolalar eng avvalo ko'rgazmali ifodalangan yoki ularning faoliyatlarga jalb etilgan predmetlar, hodisalar, sifatlar, xususiyatlar, munosabatlarning nomlanishini o'zlashtiradi. Buni bola tafakkurining ko'rgazmali-harakat va ko'rgazmali-obrazli harakterda ekanligi bilan tushuntirish mumkin. Shu tufayli ham, bog'cha yoshidagi bolalar lug'atida abstrakt (mavhum) tushunchalar deyarli uchramaydi.<sup>2</sup> Bolalar nutqidagi bu xususiyatni ham mashg'ulotlar jarayonida hisobga olish zarur.

Bolalarning nutqlari kattalarning nutqlaridan keskin farq qilinadi: Masalan: "r" o'rniga "l" yoki "y", "sh" o'rniga "s" tovushlarini ishlatishlari kuzatiladi. Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun pedagogik mahorat alohida ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda dastlabki ma'naviy – ahloqiy tushunchalarni shakllantirish bolaning dastlabki rivojlanish bosqichlaridayoq amalga oshirilishi lozim bo'lgan pedagogik talablardan biri bo'lsa, ma'naviy sifatlar: mehribonlik, to'g'rilik, vatanparvarlik, insonparvarlik, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, milliy qadriyatlarga hurmat, milliy g'urur kabi va axloq – odobga oid sifatlar: ota – onaga hurmat, salomlashish odobi, kiyinish va ovqatlanish odobi, mehnatsevarlik, uyda va jamoat joylarda o'zini tutish kabi fazilatlarini tarbiyalash jarayoni ham bolalarda nutq zahirasiining yetarlicha rivojlanishini talab etadi.

Maktabgacha ta'lim mazmunini tashkil etishda bolalar nutqini rivojlantiruvchi noan'anaviy usullardan foydalanish; ularda mashg'ulotlarga

---

<sup>2</sup> Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. Toshkent. "Adabiyot" nashiriyoti. 2006 yil.

qiziqishni yanada orttirish uchun har xil integrasiyalashgan xususiyatga ega bo'lgan ko'rgazmalardan foydalanish; maktabgacha yoshdagi bolalarga mashg'ulotlarni tashkil etishda doimo bolalarning tafakkur xususiyatini (ko'rgazmali obrazli, ko'rgazmali harakatli, emotsional) hisobga olish; ta'lim jarayoni bola yoshiga mos bo'lishi yoki imkoniyatlarini hisobga olgan holda metodlarni tanlash bilan bog'liq bo'lishi; bolalarga yondashuvda logoped, difektolog, psixolog, tarbiyachi, ota – onalar o'zaro hamkorlikda ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish ularda nutq jarayonini rivojlantirishga uzviy bog'liq bo'lib, tafakkur nutqning mahsuli ekanligini hisobga olsak, bolalarda nutqni rivojlantirishda tarbiyachilar asosan quyidagilarni mashg'ulotlarda hisobga olishlari zarur:

- Bolaning yosh davr xususiyatlarini;
- Bolaning individual imkoniyatlarini;
- Bolaning harakter xususiyatlarini;
- Bolaning tarbiyasiga kuchli ta'sir yetuvchi omillarni (kattalar, do'stlari, tarbiyaviy vositalar va hakazo).

Bola tarbiyasi hech qachon o'zining dolzarbligini yo'qotmagan muammolaridandir. Chunki, har tomonlama rivojlangan yosh avloddan jamiyat ham manfaatdordir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Хамраева, Э. (2022). Tarbiyachining nutqining jarangdorligi. *Мактабгача таълим журнали*, 1 (Журнал дошкольного образования). Получено с <https://science.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/4716>.

2. Хамраева, Е. (2021). NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARIDA BOLALARNI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH YO`LLARI. *Мактабгача таълим журнали*, 3 (журнал дошкольного образования). Получено с <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3904>.

3. Хамраева Э. Киличова М - ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL ..., 2021

Issues of formation of ecological knowledge and culture in preschool educational institutions\*

4. *Hamrayeva, E. (2021). BOLANING RIVOJLANISH SOHALARI KOMPETENSIYALARI. Chirchiq Davlat Universiteti.*

[https://scienceweb.uz/publication/1206#:~:text=Hamrayeva%2C%20E.%20\(2021\).%20BOLANING%20RIVOJLANISH%20SOHALARI%20KOMPETENSIYALARI.%20Chirchiq%20Davlat%20Universiteti.](https://scienceweb.uz/publication/1206#:~:text=Hamrayeva%2C%20E.%20(2021).%20BOLANING%20RIVOJLANISH%20SOHALARI%20KOMPETENSIYALARI.%20Chirchiq%20Davlat%20Universiteti.)

5.

[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=KjnyVEQAAAAJ&citation\\_for\\_view=KjnyVEQAAAAJ:eQOLeE2rZwMC#:~:text=BO%20E2%80%98LAJAK%20PEDAGOG%20TARBIYACHILARNING%20KASBIY%20KOMPITENTLIGINI%20SHAKLLANTIRISH%20TEXNOLOGIYALARI](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=KjnyVEQAAAAJ&citation_for_view=KjnyVEQAAAAJ:eQOLeE2rZwMC#:~:text=BO%20E2%80%98LAJAK%20PEDAGOG%20TARBIYACHILARNING%20KASBIY%20KOMPITENTLIGINI%20SHAKLLANTIRISH%20TEXNOLOGIYALARI)